

**SUN'IY INTELEKT ISHTIROKIDAGI ONLAYN
MUNOSABATLAR ISTE'MOLCHILARI VA ULAR HUQUQLARINI
HIMOYA QILISH**

Otamirzayeva Laylo Tohir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
OAV huquqi yo'nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: mazkur tezisdagi sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida shakllanayotgan onlayn munosabatlarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar savdo, xizmat ko'rsatish, marketing, mijozlarga xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab raqamli platformalarda keng qo'llanilmoqda. Tezisdagi xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar orqali O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini inson huquqlari va iste'molchi manfaatlariga zid bo'lmagan holda joriy etish bo'yicha huquqiy, axloqiy va institutsional yondashuvlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, iste'molchilar, akt, qonun, iste'molchilar, Yevropa Ittifoqi.

**ОНЛАЙН-ВЗАИМООТНОШЕНИЯ С УЧАСТИЕМ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЗАЩИТА ПРАВ
ПОТРЕБИТЕЛЕЙ**

Отамирзаева Лайло Тохир кызы

Магистрантка направления «Право средств массовой информации»
Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация: в данной тезисной работе рассматриваются вопросы защиты прав потребителей в условиях формирования онлайн-взаимоотношений с участием технологий искусственного интеллекта. Системы, основанные на ИИ, широко используются в торговле, сфере услуг, маркетинге, обслуживании клиентов и других цифровых платформах. В

работе представлены правовые, этические и институциональные подходы к внедрению технологий ИИ в Узбекистане с учетом международного опыта, с тем чтобы это внедрение не противоречило правам человека и интересам потребителей.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, потребители, акт, закон, потребитель, Европейский союз.*

CONSUMERS OF ONLINE RELATIONS INVOLVING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE PROTECTION OF THEIR RIGHTS

Otamirzayeva Laylo Tohir qizi

Tashkent State University of Law
Master's student in the field of Media Law

Abstract: *This thesis analyzes the issues related to the protection of consumer rights in online interactions emerging as a result of the development of artificial intelligence technologies. AI-based systems are widely used in trade, services, marketing, customer service, and many other digital platforms. Based on international experience, the thesis proposes legal, ethical, and institutional approaches for the implementation of artificial intelligence technologies in Uzbekistan in a way that does not contradict human rights and consumer interests.*

Keywords: *artificial intelligence, consumers, act, law, consumers, European Union.*

Dunyoni qamrab olgan sun'iy intellekt, shunchalik tez rivojlanib, ommalashib kettiki, virtual olamda ko'rgan ba'zi rasm, videolarimizni real ekaniga ham ishonish qiyin bo'lib qoldi. Sun'iy intellekt inson aqliga sig'mas darajada kontent yaratmoqda. Uni yaratgan esa hammamiz kabi oddiy odam. Sun'iy intellekt hayotimizni qaysidur darajada yengillashtiryapti va shu sababli ham har sohani egallab oldi. U ham psixolog, ham dardkash, ham do'stlik vazifasini

bajarmoqda. Betob bo'lganda tibbiy, toliqqanda ma'naviy, kerak bo'lganda moddiy ahvolni yaxshilash uchun maslahatlar bermoqda. Sun'iy intellekt daturlari shunday tuzilganki, u insonlar bilan qo'pol munosabatda bo'lmaydi va doim qo'llab-quvvatlaydi. Balki shuning uchun ham sun'iy intellekt mashxur bo'lib ketdi. Sun'iy intellekt virtual muhit bilan chambarchas bog'liq. Sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar orqali foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, avtomatik javoblar, chatbotlar, virtual yordamchilar taqdim etiladi. Ushbu o'zgarishlar esa iste'molchilar huquqlari, xususan ma'lumotga ega bo'lish, adolatli munosabat, rozilik va maxfiylik tamoyillariga oid dolzarb yuridik masalalarni yuzaga keltirmoqda.

Sun'iy intellekt inson hayotiga zarar yetkazishi mumkinmi? Undan foydalangan iste'molchilarni qanday huquqlari mavjud? Undan zarar ko'rganlarni huquqlari qanday himoya qilinadi? O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonuni qabul qilingan. Unga ko'ra, iste'molchilar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchining (ijrochining, sotuvchining) g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining o'zni to'liq hajmda qoplanishini talab qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish mumkin.¹ Qonunga, hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, iste'molchilarning ma'lumot olish, tanlash huquqi, xavfsizlik, shikoyat qilish huquqi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish huquqi mavjud. O'zbekisto Respublikasi fuqarolari mahsulot yoki xizmat haqida to'liq, ishonchli va aniq

¹ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son.
SJIF: 5.051

ma'lumotga ega bo'lishi, muqobil tovar yoki xizmatlarni erkin tanlashi, hayot va sog'liq uchun xavfsiz tovar yoki xizmatdan foydalanishi, sifatsiz mahsulot/xizmat yuzasidan murojaat qilish va kompensatsiya talab qilishi, bundan tashqari, onlayn xizmatlar orqali yig'iladigan ma'lumotlar maxfiy saqlanishini talab qilishi mumkin.² Shunday ekan, bu huquqlar sun'iy intellekt tomonidan buzilsa, zarar ko'rganlar uni sudga beroladimi? Sudga berish imkoni bo'lsa kim javobgar bo'ladi? Shunga o'xshash muommolarga bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan turli xil yechimlar qo'llanilmoqda. Birinchilardan bo'lib, Yevropa ittifoqi 2024-yil sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha keng qamrovli qonunlardan birini qabul qildi. Qonunga ko'ra, odamlar yoki zaif guruhlarining kognitiv va xulq-atvorga asoslangan boshqaruvi: masalan, bolalarda xavfli xatti-harakatlarni targ'ib qiluvchi ovozi o'yinchoqlar, odamlarni ularning xatti-harakati, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki shaxsiy xususiyatlariga qarab tasniflash, biometrik aniqlash va tasniflash; ommaviy joylarda haqiqiy vaqt rejimida uzoqdan biometrik aniqlash (masalan, yuzni tanish texnologiyasi) ta'qiqlandi. Ba'zi istisnalar huquqni muhofaza qilish maqsadida ruxsat etilishi mumkin. "Haqiqiy vaqt" rejimida biometrik aniqlash faqat juda jiddiy holatlarda qo'llaniladi. "Keyingi" (post) rejimda biometrik aniqlash, ya'ni jinoyat sodir bo'lganidan keyin aniqlash, faqat sud ruxsati bilan amalga oshiriladi.³ Qonun mutloq yaratuvchi va iste'molchilar foydasiga qaratilgan bo'lib, mualliflik huquqidan tortib xavfsizlik tizimigacha yoritilgan. AQSH davlatlarida hali bu bo'yicha qonun qabul qilinmagan bo'lsa-da, ayrim shtatlarda insonlar xavfsizligini himoya qilish maqsadida sun'iy intellekt nazorat ostiga olingan. O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellekt yutuqlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, fuqarolarimizning huquq va

² <https://lex.uz/docs/-4704>.

³ <https://www.europarl.europa.eu/portal/en>.

erkinliklarini ta'minlash maqsadida undan foydalanish chegaralarini belgilash uchun sohaning huquqiy asoslarini yaratish zarurati mavjud. Hozirga qadar mamlakatimizda sun'iy intellekt sohasidagi munosabatlar 5 ta tarqoq holdagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda. Ushbu hujjatlar bilan sun'iy intellekt texnologiyalari sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiyot, ijtimoiy va davlat boshqaruvi kabi sohalarga tatbiq etilishi belgilandi. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va sohadagi xalqaro standartlarni mamlakatimiz davlat standartlari sifatida qabul qilish ko'zga olingan. Mamlakatimizda sun'iy intellekt shiddat bilan rivojlanib borib, unga talab ortayotganiga qaramasdan, sohadagi yagona davlat siyosati, maxsus vakolatli davlat organ faoliyati, sun'iy intellekt texnologiyalariga nisbatan davlat standartlari va ularni qo'llash mumkin bo'lgan sohalarda yagona qonun hujjati doirasida tartibga solinmagan. Qonunchilikda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash natijasida yuzaga kelgan huquqbuzarlik holatlari uchun javobgarlik belgilanmagan. Bu esa, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda qanday holatlar huquqbuzarlik hisoblanishi va mazkur huquqbuzarlik holatlari sodir etilganda, asl huquqbuzarni aniqlash va uni javobgarlikka tortish imkonini bermaydi.⁴ Hozirda bu bo'yicha chet davlatlarda qonunchilik loyihalari ishlab chiqilmoqda. Milliy qonunchiligimizda bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida bizda ham bu mavzu eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Bizning fikrimizcha birinchi navbatda, inson xavfsizligi ta'minlanishiga qaratilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqishimiz kerak. Sun'iy intellekt aslida minimal darajada xavf keltirib chiqaradi. Lekin bu masalani ham nozik jihatlari bor. Masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul

⁴ <https://parliament.gov.uz/>.

qilingan aktda sun'iy intellekt ilovalari ta'qiqlanadi. Bunday ilovalarga insonlar yoki muayyan zaif guruhlarining kognitiv-harakat manipulyatsiyasi: masalan, bolalarni xavfli xatti-harakatlarga undaydigan ovozli o'yinchoqlar kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy reyting beruvchi sun'iy intellekt: insonlarni ularning xatti-harakati, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki shaxsiy xususiyatlariga asoslanib baholaydigan, insonlarni biometrik aniqlash va toifalarga ajratish, real vaqt rejimidagi va masofaviy biometrik aniqlash tizimlari, masalan, jamoat joylarida yuzni aniqlash kabi vazifalarni bajaradigan ilovalar man etiladi. Ba'zi istisnalar huquqni muhofaza qilish maqsadlarida ruxsat etilishi mumkin. Real vaqtli masofaviy biometrik aniqlash faqat og'ir holatlarda cheklangan tarzda ruxsat etiladi. Post-biometrik aniqlash tizimlari (ya'ni aniqlash kechiktirilgan holda amalga oshiriladigan tizimlar) esa faqat jinoiy ishlarni tergov qilish uchun va sud ruxsati bilan ruxsat etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt tizimlarida shaffoflik va xabardorlik, diskriminatsiyadan himoya, ma'lumotlarni himoya qilish kabi bo'shliqlar mavjud. Sun'iy intellekt iste'molchilar huquqlarini buzilmasligini oldini olish uchun, aniq va tushunarli axborot taqdim etishi, ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlashda maxfiylik tamoyillariga rioya qilishi, u taqdim etayotgan qarorlar nazorat ostiga olinishi kerak. O'zbekiston Respublikasida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Rivojlangan mamlakatlar misolida Yevropa Ittifoqi tomonidan GDPR (Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish) kabi qonunlar ishlab chiqilgan. Bu qonunlarga teskari ketmaslik uchun ham, sun'iy intellekt qonuniylashtirilishi kerak. Bu masalani hal qilish maqsadida, normativ-huquqiy asosni kuchaytirish, ya'ni sun'iy intellekt bilan bog'liq xizmatlar uchun alohida yuridik me'yorlar ishlab chiqilishi lozim. Iste'molchilar huquqlarini buzuvchi SI xizmatlari ustidan murojaat qilish va

shikoyat kiritish uchun maxsus vakolatli organlar tashkil etilishi kerak. Iste'molchilar sun'iy intellekt qanday ishlashi, qanday ma'lumotlar ishlatilayotgani, qanday huquqlarga egaligi haqida doimiy ravishda xabardor qilinishi kerak.

Sun'iy intellekt ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha judayam ko'plab rivojlangan davlatlar, Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Sinagpur, Yaponiya va Janubiy Koreya qonun-loyihalar ustida ish olib bormoqdalar.⁵ Turli mamlakatlarda sun'iy intellekt sohasida qonunchilikni shakllantirish turli rivojlanish bosqichlarida turadi. Ushbu davlatlarda shakllanayotgan huquqiy tartibga solishni ko'rib chiqishda, faqat etik jihatlar emas, balki texnik tartibga solish elementlarining ham vaqti-vaqti bilan huquqiy tizimga "qo'shilayotganini" e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu holat, texnik standartlarning chiqarilishi va ular asosida normativ-huquqiy hujjatlar sifatida qabul qilinishi orqali namoyon bo'lmoqda yoki ular mavjud qonunchilikni rivojlantiruvchi shaklda ishlab chiqilmoqda. Qat'iy yondashuv tarafdorlari asosan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'lib, ular inson huquqlarini texnologiyalar orqali boshqarilayotgan dunyoda samarali himoya qilishni maqsad qilganlar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar iste'molchilarga qulaylik yaratgani holda, ularning asosiy huquqlariga tahdid soluvchi yangi xavf va ehtimollarni ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun shaffoflik, adolat, nazorat va rozilik tamoyillari asosida huquqiy mexanizmlar yaratilishi, regulyator nazorati kuchaytirilishi, xalqaro standartlarga mos yondashuv qo'llanilishi zarur. Bu orqali sun'iy inmtellekt xizmatlaridan foydalanishda iste'molchilarning huquqiy himoyasi ta'minlanadi va ularda ishonch va qoniqish darajasi oshiriladi. Bugungi

⁵ Ranking Table. The Global AI Index 2024. URL:
<https://www.tortoisemedia.com/intelligence/global-ai/#rankings> (10.12.2024).
SJIF: 5.051

raqamli asrda, onlayn savdo va raqamli xizmatlarning kengayishi bilan birga, iste'molchilar huquqlari ko'proq e'tiborga muhtoj bo'lib bormoqda. Shuning uchun davlat nazorati kuchaytirilishi, tadbirkorlarning mas'uliyati oshirilishi, iste'molchilarning huquqiy savodxonligi yuksaltirilishi va xalqaro standartlar asosida qonunchilik moslashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son.
2. <https://lex.uz/docs/-4704>.
3. <https://www.europarl.europa.eu/portal/en>.
4. <https://parliament.gov.uz/>.
5. Ranking Table. The Global AI Index 2024. URL:
<https://www.tortoisemedia.com/intelligence/global-ai/#rankings> (10.12.2024).